



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING QARORI

2024-yil 25-aprel

VI-100-46-7-96-K/24

Kattaqo'rg'on tumani

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 4-apreldagi "Mahallalardagi muammolarni hal etishda xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatlari va senatorlarning "Mahalla yettiligi" bilan o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish chora-tadbirlari to'g'risida"gi KQ-706-IV-sonli Qarori ijrosini ta'minlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 4-apreldagi "Mahallalardagi muammolarni hal etishda xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatlari va senatorlarning "Mahalla yettiligi" bilan o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish chora-tadbirlari to'g'risida"gi KQ-706-IV-sonli Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga muvofiq VI chaqiriq xalq deputatlari tuman Kengashining 100- sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 4-apreldagi "Mahallalardagi muammolarni hal etishda xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatlari va senatorlarning "Mahalla yettiligi" bilan o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish chora-tadbirlari to'g'risida"gi KQ-706-IV-sonli qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mahallalardagi muammolarni hal etishda xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari va "Mahalla yettiligi"ning o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish sxemasi 1- ilovaga, xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari va "Mahalla yettiligi"ning o'zaro hamkorlik yo'nalishlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlariga:

-tuman Kengashi deputatlarini tegishli saylov okruglaridagi mahallalarga birlashtirish;
-tuman Kengashi deputatlari va "Mahalla yettiligi"ning hamkorlikdagi faoliyatini ushbu Qarorning 1-ilovasidagi sxema asosida tashkil etish;

-bir oy muddatda Kengash sessiyasida ushbu sxema asosida ishlarni tashkil etish masalasini O'zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo'limi hamda "Mahalla yettiligi" vakillari ishtirokida ko'rib chiqish va aniq vazifalarni belgilab olish;

-har chorakda Kengash sessiyasida tuman Kengashi deputatlari va “Mahalla yettiligi”ning o‘zaro hamkorligini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni muhokama qilish hamda mas’ullarning faoliyatiga baho berish, shuningdek, O‘zbekiston Mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi rahbarining Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg‘armasi daromadlari va xarajatlari ijrosi to‘g‘risidagi hisobotini eshitish tavsiya etilsin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari 3-ilovaga muvofiq hududlarga biriktirilsin

5. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari:

-biriktirilgan hududdagi tuman Kengashida ishni Mahallalardagi muammolarni hal etishda xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari va “Mahalla yettiligi”ning o‘zaro hamkorligini yo‘lga qo‘yish sxemasi asosida tashkil etish uchun mas’ulligi belgilansin;

-har oyning bir haftasida o‘zi biriktirilgan hududga chiqqan holda mazkur Qarorda belgilangan vazifalarning sifatli tashkil etilishida tuman Kengashiga amaliy yordam ko‘rsatib borsin.

6. Belgilansinki:

alohida grafik asosida hududlardan yuborilgan takliflarni o‘rganish va muhokama qilish bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashining sayyor yig‘ilishlari tashkil etiladi;

har yarim yilda tuman Kengashining sayyor yig‘ilishlari davomida aniqlangan, “Mahalla yettiligi” faoliyati bilan bog‘liq tuman darajasidagi masalalar tuman sessiyasi muhokamasiga kiritilib, sohaga oid mutasaddilar axborotlari eshitiladi;

zarur hollarda aniqlangan muammolar yechimi bo‘yicha viloyatga takliflar kiritib boriladi.

7. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (J.Safarov), “Kattaqo‘rg‘on: kecha va bugun” gazetasi muharriri (O‘.Usmonov) ushbu qaror ijrosi bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiya raislari zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



TESHAYEV MUXIDDIN
XOLIKULOVICH

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashining
2024-yil 25-apreldagi
VI-100-46-7-96-K/24 -son qaroriga
1-ilova

**Mahallalardagi muammolarni hal etishda xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari va "Mahalla yettiligi"ning o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish
SXEMASI**

O'rganiladigan masalalar	<ul style="list-style-type: none">- tuman Kengash deputatlari va "Mahalla yettiligi"ning 8 ta yo'nalish bo'yicha o'zaro hamkorlik masalalari;- "Mahalla yettiligi"ning kollegial qarorlari asosida ko'rsatiladigan 64 turdagi ijtimoiy yordam va ajratiladigan subsidiyalarning manzilliligi va asosliligi;- "Mahalla yettiligi" tomonidan aniqlangan va tuman, viloyat, respublika darajasida hal etiladigan muammolar.
---------------------------------	--

O'rganishni amalga oshiruvchi sub'yekt	- tuman Kengashi deputatlari (zaruratga ko'ra, hududdagi tegishli idora va tashkilotlar vakillari jalb etilishi mumkin) o'zi saylangan okrugdagi "Mahalla yettiligi" faoliyatini o'rganadi hamda yaqin hamkorlik qiladi.
---	--

Bosqichlar	Sub'yektlar	Tadbirlar	Ijro muddati
1-bosqich	Xalq deputatlari tuman Kengashi deputati	"Mahalla yettiligi" bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun o'zi saylangan okrugdagi mahallalarga mahalliy Kengash kotibiyati tomonidan biriktiriladi.	1 kun
2-bosqich	Xalq deputatlari tuman Kengashi deputati	Tegishli mahalladagi "Mahalla yettiligi" tomonidan amalga oshirilgan ishlar holatini (shuningdek, 8 ta hamkorlik yo'nalishlarini tanlov asosida) o'rganadi. O'ziga biriktirilgan mahallalarda "Mahalla yettiligi" tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam va ajratiladigan subsidiyalarning manzilliligi va asosliligiga alohida e'tibor qaratadi.	Kengash kotibiyati tasdiqlaydigan grafik asosida (bir oy davomida o'z okrugiga kiruvchi barcha mahallalarda)

3-bosqich	Xalq deputatlari tuman Kengashi deputati	Saylov okrugidagi mahalla fuqarolarining qabulini tashkil etadi. O'rganish va aholi bilan muloqot natijalari bo'yicha aniqlangan kamchiliklarni va shakllantirilgan takliflarni umumlashtiradi hamda tuman Kengashi kotibiyatiga taqdim etadi.	Har oyning oxirgi ish kunida
4-bosqich	Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati	Deputatlar tomonidan taqdim etilgan muammolarni tegishli komissiyalar o'rtasida o'rganish uchun taqsimlaydi.	Takliflar kelib tushgan kundan e'tiboran 1 hafta ichida
5-bosqich	Xalq deputatlari tuman Kengashi doimiy komissiyalari	Taqdim etilgan muammolarni tuman darajasidagi mutasaddi idora va tashkilotlar vakillari bilan birgalikda o'rganib, bevosita joyiga chiqqan holda sayyor tarzda muhokama qiladi hamda hal etish choralarini ko'radi. O'rganish natijalari bo'yicha o'z yechimini topmagan muammolarni Kengash sessiyasi muhokamasiga kiritadi.	Har oyning oxirgi ish kunida
6-bosqich	Xalq deputatlari tuman Kengashi	<p>“Mahalla yettiligi” faoliyatini o'rganish yakunlari bo'yicha aniqlangan masalalar muhokamasiga bag'ishlangan sessiyani o'tkazadi. Sessiyada:</p> <ul style="list-style-type: none"> - “Mahalla yettiligi” faoliyati va ular bilan hamkorlik samaradorligini oshirish masalalari muhokama qilinadi; - Mahalla uyushmasi tuman bo'limi rahbarining mahallaning ijtimoiy- iqtisodiy muammolarini hal etish jamg'armasi daromadlari va xarajatlari ijrosi to'g'risidagi hisoboti eshitaladi; - MFY raislarining faoliyatiga baho beriladi, zaruratga ko'ra, ularga nisbatan ishonchsizlik bildiriladi (<i>ushbu norma «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi qonunga kiritilgandan so'ng</i>); - “Mahalla yettiligi” hamda deputatlar tomonidan aniqlangan, tuman darajasida hal etilishi lozim bo'lgan masalalar muhokama qilinadi hamda zarur choralar belgilanadi; - viloyat darajasida hal etiladigan masalalar bo'yicha yuqori turuvchi Kengashga takliflar kiritiladi. <p>Mazkur sessiyada ushbu hududdan saylangan senator va viloyat Kengashi deputatlari ishtirok etadi.</p>	Har chorakda

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani
Kengashining
2024-yil 25-apreldagi
VI-100-46-7-96-K/24 -son qaroriga
2-ilova

**Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari va "Mahalla yettiligi"ning
o'zaro hamkorlik
YO'NALISHLARI**

1. Aholining ijtimoiy xizmatlardan xabardorligini oshirish bo'yicha:

- "Mahalla yettiligi" vakillari ishtirokida mahalla aholisi bilan muloqot tashkil etish (har hafta bir marotaba fuqarolarni qabul qilish);

- "Mahalla yettiligi" vakillari bilan birgalikda davlat ijtimoiy himoya tizimi orqali qamrab olingan 250 ga yaqin xizmatlar mohiyati bo'yicha tushuntirishlar olib borish;

- mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar mazmun-mohiyatini aholiga yetkazish.

2. Mahallada aholi muammolarini samarali hal etish, ma'naviy muhitni saqlash, ma'naviy-ma'rifiy chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha:

- hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, soliq inspektori va ijtimoiy xodimning o'z vazifalarini bajarishda hamkorligini yo'lga qo'yish;

- mahallada aholini moddiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash ishlarini tashkil etish, kambag'al oilalarga ajratilayotgan budget mablag'lari va boshqa mablag'larni maqsadli va manzilli yo'naltirish;

- qonunchilikka muvofiq Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg'armasiga jalb etilgan mablag'lar va homiylik xayriyalaridan maqsadli foydalanish;

- mahallada sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni saqlash, milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarni targ'ib qilish, ma'naviy-ma'rifiy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

- "Mahalla yettiligi"ning ijtimoiy yordam va ajratiladigan subsidiyalar to'g'risidagi kollegial qarorlarini belgilangan tartibda rasmiylashtirish va asosli qabul qilish;

- mahallada tegishli qarorlar bajarilishi, hal etilmagan muammolar sabablari hamda aholi yashash sharoitlarini yaxshilash bo'yicha takliflar tayyorlash;

- mahalla aholisining mahalla raisi faoliyatidan rozi bo'lishiga erishish.

3. Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha:

- aholi bandligini ta'minlash, o'zini o'zi band qilish faoliyatini boshlamoqchi bo'lgan ishsiz, shu jumladan, "Temir daftar" va "Ayollar daftari"ga kiritilgan fuqarolarga faoliyatini boshlash uchun belgilangan mezonlarga asosan subsidiyalarni to'g'ri ajratish (tomorqa yer egalariга yengil konstruksiyali issiqxonalar o'rnatish, sug'orish vositalarini xarid qilish, urug'liklar va ko'chatlar sotib olish va boshqa asbob-uskunalar);

- oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida imtiyozli kreditlarni to'g'ri ajratish;

- kreditlar va subsidiyalar ajratish ko'zda tutilgan har bir loyihaning samaradorligi;

- mahalla aholisining hokim yordamchisi faoliyatidan rozi bo'lishiga erishish.

4. Xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, bilim va ko'nikmalarni egallashda ularga ko'maklashish va rag'batlantirish bo'yicha:

- "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarga belgilangan mezonlar asosida moddiy yordam, uy-joy uchun subsidiyalarni to'g'ri ajratish;

- xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish uchun kreditlarni to'g'ri ajratish, maxsus o'qitish dasturi bo'yicha o'qitish;

- xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, sog'lig'ini saqlash, xotin-qizlar sportini rivojlantirish, ularning mehnat va o'qish sharoitlarini yaxshilash bilan bog'liq tadbirlarni moliyalashtirish;

- mahalla aholisining xotin-qizlar faoli faoliyatidan rozi bo'lishiga erishish.

5. Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirish bo'yicha:

- "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarga belgilangan mezonlar asosida moddiy yordam, tadbirkorlik faoliyatini boshlash va o'zini o'zi band qilish uchun subsidiyalarni to'g'ri ajratish (asbob-uskunalar, mehnat qurollari, urug'lik va ko'chatlarni xarid qilish va boshqa);

- yoshlarni tadbirkorlikka va kasb-hunarga o'qitish kurslari xarajatlarini qoplash;

- “Yoshlar daftari”ga kiritilgan professional va oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan yoshlarning to’lov-kontrakt summasining bir qismini to’lab berish;

- mahalla aholisining yoshlar yetakchisi faoliyatidan rozi bo’lishiga erishish.

6. Mahallada huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat tartibini saqlash bo’yicha:

- mahalla hududida jamoat tartibini saqlash choralarini ko’rish, jinoyatchilikning oldini olish bo’yicha profilaktik ishlarni amalga oshirish;

- qarovsiz, nazoratsiz qolgan voyaga yetmaganlarning ijtimoiy-huquqiy himoyasini ta’minlash;

- mahalla aholisining profilaktika inspektori faoliyatidan rozi bo’lishiga erishish.

7. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish, davlat tomonidan ko’rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish bo’yicha:

- og’ir ahvolga tushgan va og’ir ahvolga tushib qolish xavfi yuqori bo’lgan shaxslar va oilalarni aniqlash, ularning ehtiyojlaridan kelib chiqib professional ijtimoiy xizmat ko’rsatish va yordam tashkil etish;

- “Temir daftar”ga kiritilgan fuqarolarga belgilangan mezonlar asosida moddiy va boshqa turdagi yordamlarni to’g’ri ko’rsatish;

- mahalla aholisining ijtimoiy xodim faoliyatidan rozi bo’lishiga erishish.

8. Mahalliy byudjet daromadlari barqarorligini ta’minlash bo’yicha:

- hududdagi imkoniyatlarni ishga solish, soliq bazasini kengaytirish;

- tadbirkorlik faoliyatini qonuniylashtirish hamda o’zini o’zi band qilgan fuqarolarning kichik biznes toifasiga o’tishiga amaliy yordam ko’rsatish;

- mahalla aholisining soliq inspektori faoliyatidan rozi bo’lishiga erishish.

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani
Kengashining
2024-yil 25-apreldagi
VI-100-46-7-96-K/24 -son qaroriga
3-ilova

**Mahallalardagi muammolarni hal etishda xalq deputatlari tuman Kengashi
deputatlarining "Mahalla yettiligi" bilan o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish
bo'yicha mahallalarga biriktirilgan deputatlar
RO'YXATI**

№	Familiyasi, ismi va otasining ismi	Ish joyi va lavozimi	Biriktirilgan hudud nomi
1	Toshonov Yazdon Hamidovich	O'zbekiston Liberal demokratik partiyasi Kattaqo'rg'on tuman Kengashi raisining birinchi o'rinbosari apparat rahbari	Go'zal, Omonboyko'prik
2	Yuldashev G'ulom Zokirovich	Kattaqo'rg'on tumani 41- umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori	Saroyqo'rg'on, Yangiqiyot
3	Hayitov Toshtemir Djumayevich	Kattaqo'rg'on tumani "Juma Hayitov" fermer xo'jaligi rahbari	Qorako'lcha, Kumushkent, Qushbegi
4	Xolbekov Parda Turkmonovich	Kattaqo'rg'on tumani "Eshturdiyev Sherbek dalasi" fermer xo'jaligi ish yurituvchisi	Omonkalxat, Bunyodkor
5	Djurayev Ro'zimurot Bozorovich	Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" Kattaqo'rg'on tumani Kengashi o'quv-sport texnika klubi boshlig'i	Balandravot, Qoradaryo, Yakkabog'
6	Qodirova Marxabo Eshpulatovna	Kattaqo'rg'on tumani 35- umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari	Yangihayot, Polvontepa
7	Irgashov Abduvali Aktamovich	Kattaqo'rg'on tumani "Yangi Avlod Academy" NTM rahbari	Mullatog'ay, Yangiravot
8	Shadiyeva Nigora Qarshiyevna	Kattaqo'rg'on tumani 98- umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori	Kadan, Mullako'rpa
9	Yuldashov Sobir Eshquvatovich	"Kattaqo'rg'on Jayxuni" fermer xo'jaligi rahbari	Oyjon, Nisbat
10	Erbutayev Kamol Raxmonovich	Kattaqo'rg'on tumani "Chig'atoy" mahalla fuqarolar	Chig'atoy, Jumaboy

		yig'ini raisi	
11	G'ulomov Rustam Toshpo'lotovich	Javlon mahalla fuqarolar yig'ini raisi	Tarnov, Javlon
12	Ruziyev Xudayberdi Tag'ayevich	Kattaqo'rg'on tumani "Suylig'op" fermer xo'jaligi rahbari	Qiyot, Yodgorxo'ja, Cho'yanchi
13	Tillayev Xusniddin Turayevich	Tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi mutaxassisi	M.Ulug'bek, A.Navoiy
14	VAKANT		Do'stlik, Madrasa, Charog'on
15	Rashidov Shoxruz Rashidovich	Kattaqo'rg'on tumani "Rashidov Shoxruz Rashidovich" fermer xo'jaligi rahbari	Do'stlik, Bog'ot (Charog'on, Do'stlik, M.Ulug'bek)
16	Mavlonov Mardon Ro'ziyevich	Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari tuman Kengashi raisi	Mundiyon, Jonkel
17	Amirov Shodiyor Abdullayevich	Tumandagi 30-son bolalar musiq va san'at maktabi direktori	Tavaron, Boltabek, Qirg'iz
18	Ernazarov Ulugbek Narzullayevich	Tuman "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi, bolalarni ijtimoiy himoya qilish shu'basi mudiri	Burgansoy, Yonboshsoy, Jizmonsoy
19	Narzullayev Baxtiyor Saydullayevich	"Qoqsoy savdo barakasi" MCHJ rahbari	Moybuloq, Qoqsoy
20	VAKANT		Qo'shqo'ton, Andoqsoy, Sebuston
21	Teshayev Muhiddin Xoliqulovich	Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashi kotibiyati mudiri	Vayrot, Yovi, Nayman
22	Nasriddinov Jamshid To'lqinovich	Kattaqo'rg'on tumani hokimi	Qo'shtepa, Fayzikent
23	Baymuradova Aziza Ne'matovna	Tumandagi 28-umumiy o'rta ta'lim maktab direktori	Yangiobod, Qo'shhovuz
24	Norboyev Anvar Ochilovich	"Kattaqo'rg'on elektrotexnika zavodi" MCHJ direktori	Yangiqo'rg'oncha, Melixo'ja
25	Nurmanova Ra'no Jurayevna	Tuman Tibbiyot birlashmasi Zarafshon oilaviy poliklinika mudiri	Uyshun, Olmazor, Sho'rak, Alijon
26	Maxmudova Soxiba Nuriddinovna	Kattaqo'rg'on tumanidagi 8- maktabgacha ta'lim tashkiloti	Nomozpolvon, Kumushqirg'oq

		pedagogi	
27	To'layev Samariddin	Kattaqo'rg'on tumani "Zalvarota" TSX fermer xo'jaligi rahbari	Kattako'rpa, Zarqo'rg'on
28	Ergasheva Farida	"Kattaqo'rg'on elektrotexnika zavodi" MCHJ kadrlar noziri	Navbahor, Balandchordara
29	Sadriiddinov Azizjon Aktamovich	"Anvarjon biznes" MCHJ unitar korxonasi boshlig'i	Kattaming, Valijon
30	Rustamov Abdurashid Xasanovich	Agrosanoat xodimlari kasaba uyushmasi tuman Kengashi raisi	Qumoq, Mo'minxo'ja

IZOH: Tuman Kengashi deputatlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 4-apreldagi KQ-706-IV-sonli qarori hamda qaror bilan belgilab berilgan SXEMA bo'yicha ishlarni tashkil etadi hamda amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni belgilangan tartibda tuman Kengashi kotibiyatiga taqdim etib boradi.